

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi bilan uchrashuv tashkil qilindi

2020-yil 8-fevral kuni O'zR FA Zoologiya institutida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi rahbar xodimlari bilan uchrashuv tashkil qilindi.



Uchrashuvda Zoologiya instituti olimlari va Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan taklif etilgan loyihalar muhokomasi bo'lib o'tdi. Loyihalarda bioxilma-xillikni muhofaza qilish, hayvonot olami kadastrini tuzish, Qizil kitobning yangi nashri elektron bazasini yaratish, kadastr faoliyatini yuritish va amaliyotga joriy etish masalalari muhokama qilindi va o'zaro fikr almashildi.



Uchrashuv so'nggida Institut hamda Qo'mita o'zaro hamkorlikda hayvonot olami kadastrini tuzish va ularning informatsion bazasini hamda Qizil kitobning yangi nashri elektron bazasini yaratish kabi masalalar

bo'yicha hamkorlik qilish yuzasidan "Yo'l xaritasi" tuzishga kelishib olindi.